



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 6-fevral, № 27 (8650)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



IJTIMOY SOHALARDAGI VAZIFALAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 5-fevral kuni ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

O'zbekistonda ijtimoiy davlat qurish strategik maqsad etib belgilangan. Aholi turmushi uchun munosib sharoitlar yaratish, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirish bo'yicha barcha choralar ko'rilmogda.

Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta'limda qamrov 27 foizdan 74 foizga yetdi. Yangi maktablar qurilib, qo'shimcha 700 mingta o'quvchi o'rni yaratildi. Prezident maktablari tashkil etildi, ixtisoslashtirilgan maktablar ko'paydi. Oliy o'quv yurtlari soni 200 tadan oshib, qamrovi 42 foizga yetdi. Ta'lim va tibbiyotda xususiy sektorga keng yo'l ochilib, sifatga intilish paydo bo'ldi.

Shu bilan birga, bu sohalarda aholi bilan ishlash, standartlarni yangilash va raqamlashtirish borasida kamchiliklar bor. Yig'ilishda shu kabi muammolar tahlil qilinib, joriy yilgi vazifalar belgilandi.

Barcha maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy qadriyatlarimizga mos o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash, ovqat ta'minoti, davomat, badal puli kabi jarayonlarni to'liq raqamlashtirish zarurligi ta'kidlandi. Bog'cha mudirialigiga nomzodlarni saralash va lavozimga tayinlash, tarbiyachilar malakasini oshirish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Ta'lim sohasida vazifalar juda ko'p. Shu bois o'tgan haftada Loyiha ofisi tashkil qilindi va unga katta ilmiy-amaliy tajribasi bor mutaxassislar jamlandi. Endi mazkur ofis Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan birgalikda maktablarda matematika, fizika, kimyo, biologiya va xorijiy tillar bo'yicha o'quv reja va dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilaydi. O'quvchi va muallimlar bilimini

baholashda xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS, PIRLS) bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Prezident maktablari ta'lim dasturi yana bir mingta maktabda qo'llanadi. Ularning moddiy-texnika bazasi shunga muvofiq yaxshilanadi. Maktablarga "til egalari"ni olib kelish amaliyoti kengaytiriladi.

Yoshlar maktab davridayoq, hech bo'lmasa, bitta hunarni egallab katta hayotga qadam qo'ysa, o'z yo'lini topadi. Shu maqsadda 50 ta kasb-hunar ro'yxati tuzilib, ular bo'yicha o'quv va amaliyot dasturlari ishlab chiqiladi. Maktablarda ustaxonalar, tadbirkorlar va mutaxassislarni jalb qilgan holda to'garaklar tashkil etiladi, "Kasbiy ta'lim ustasi" lavozimi ochiladi. Maktabdagi bo'sh joylar tadbirkorlarga o'quvchilarni kasb-hunarga o'qitish uchun tekis foydalanishga beriladi. O'quv kursini tamomlab, imtihondan o'tgan o'g'il-qizlarga malaka sertifikatini beriladi.

Davlatimiz rahbari maktablardagi tarbiya va ma'naviyat masalasiga alohida to'xtaldi. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali ularida "huquqbuzarlikka qarshi immunitet" hosil qilish zarurligi ta'kidlandi. Maktablardagi 2 mingta inspektor-psixolog shtati Ichki ishlar vazirligidan Milliy gvardiya tizimiga o'tkazilishi belgilandi.

Darslardagi davomatga, tarbiyasi og'ir o'quvchilarga alohida e'tibor qaratiladi. Ota-onalar va mahalla raislarining bu boradagi mas'uliyati oshiriladi. "Maktab — ota-ona — mahalla" zanjiri asosida elektron muloqot platformasi ishga tushiriladi.

Yoshlar o'rtasida ommalashgan

ijtimoiy tarmoqlar tahlil qilinib, ularning zararli ta'siridan himoyalaniish va ijobiy tomonidan foydalanish choralari ko'riladi. Shuningdek, ota-onalar uchun farzand ta'lim-tarbiyasi bo'yicha xalqchil tilda qo'llanmalar tayyorlanadi.

— Bu tashabbuslar yo'lga qo'yilsa, maktab ta'limi bo'yicha ota-onada mas'uliyat, o'qituvchida majburiyat, o'quvchida ishonch, ta'lim va tarbiyada sifat, mahallada esa nazorat bo'ladi, — dedi Prezident.

Professional va oliy ta'limdagi ayrim yo'nalishlar hozirgi mehnat bozoriga, texnologik yangilanishlarga mos emasligi ko'rsatib o'tildi. Ish beruvchilarda katta ehtiyoj, talabalarda salohiyat va xohish bor. Lekin ularni bog'laydigan uzviy tizim yo'q.

Shu bois endi Kasbiy bilim va malakalarni rivojlantirish respublika kengashi hamda Mehnat bozori tadqiqotlari instituti ta'lim sohasidagi Loyiha ofisiga birlashtiriladi.

Talab yuqori bo'lgan 100 ta kasb standarti Germaniya, Shveysariya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida yangilanadi. Bunda malaka talabi ish beruvchi ehtiyojiga moslashadi. Professional ta'lim ustozlariga yangi standartlar bo'yicha o'qitish talablari qo'yiladi.

Yangi o'quv yilidan boshlab, texnikumlarda o'qitish "akademik" va "ishchi kasb" komponentlarining uzviyligini ta'minlaydigan yangi tizim asosida yo'lga qo'yiladi. Bunda kollej-texnikumning 1 va 2-kursidagi ta'lim dasturlari, darsliklar, bilimni baholash mezonlari va muallimlarga talablar oliygohlar bilan bir xil bo'ladi.

Texnikumlarda ham "kredit tizimi" joriy qilinib, fanni o'zlashtirish bo'yicha to'plangan "kreditlar" oliygohlarda tan olinadigan tizim bo'ladi. Ya'ni kollej-texnikumda ikki yil davomida yetarli "kredit" to'plagan o'quvchilar "2+2" yoki "2+3" dasturlari asosida oliygohlarning ikkinchi yoki uchinchi kurslarida ta'limni davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kollej-texnikumda o'qib, faoliyatini ishlab chiqarishda davom ettirmoqchi bo'lganlarning sohadagi mavqeini oshirish bo'yicha ham yangi tizim yo'lga qo'yiladi. Endi kollej-texnikumda "ishchi kasb" yo'nalishida o'qiganlar ikki yoki uch yil ishlab, tajriba orttirganidan keyin imtihon topshirib, bakalavrga teng malaka darajasini olishi mumkin.

Mutasaddilarga xorijiy tajriba asosida oliygoh, texnikum va kollejni bir-biriga bog'lash shartlari va tartibini ishlab chiqish topshirildi. Oliy ta'lim muassasalariga maqom berishning aniq mezonlarini belgilash, bakalavr yo'nalishlarini maqbullashtirish, ta'lim dasturlarini dunyodagi 300 ta eng yaxshi oliygoh dasturi asosida yangilash vazifasi qo'yildi.

"El-yurt umidi" jamg'armasi Prezident Administratsiyasi huzuriga o'tkazilib, xorijda o'qish bo'yicha yangi tizim joriy etilishi belgilandi.

Aholi hayotida katta o'rin tutadigan sohalardan biri bu sog'liqni saqlash. Yig'ilishda bu boradagi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Birlamchi tibbiyot tizimida sifat va mutaxassislar yetishmasligi qayd etilar ekan, Sog'liqni saqlash vazirligiga sohadagi barcha vakansiyalarni onlayn platformaga joylashtirib, kadrlarni ishga

olish bo'yicha shaffof tizim yaratish topshirildi.

Ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, avvalo, qishloqlar aholisiga xizmat qilishi kerakligi ta'kidlandi. Ularni birlamchi bo'g'in bilan bog'lash, ish tizimini raqamlashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Kasalliklarni erta aniqlash maqsadida endilikda xavf guruhiga kiruvchi aholini yurak-qon tomir, onkologiya va endokrin kasalliklari skriningidan o'tkazish tizimi o'zgartirildi. Buning uchun respublika kardiologiya, endokrinologiya, onkologiya markazlari mas'ul bo'ladi.

Shuningdek, onkologiya bo'yicha har bir erta aniqlangan holat uchun tibbiyot brigadalariga mukofot berish joriy qilinadi. Bu tajriba 1-maydan Qashqadaryoda boshlanadi va kelgusi yildan boshqa hududlarda yo'lga qo'yiladi.

Xorijiy ekspertlar jalb qilinib, eskirgan klinik protokol va standartlar xalqaro mezonlarga moslashtiriladi. Kasalligi yengil bemorlarni dori bilan emas, immunitetni ko'taruvchi tabiiy vositalar, jismoniy mashq va fitoterapiya bilan davolash kengaytiriladi.

Tibbiyot sohasidagi 23 ta markaz, 12 ta oliygoh, 2 ta malaka oshirish markaziga zamonaviy menejerlar ishga olinib, xalqaro akkreditatsiyadan o'tkaziladi. Buning natijasida shifokor va hamshiralar yangicha o'qitiladi, davolash sifati oshadi, dori yozish kamayadi, eng muhimi — rivojlangan klinikalar muhiti kirib keladi.

So'nggi ikki yilda tibbiyot sohasini raqamlashtirishga budgetdan 90 milliard so'm yo'naltirildi. Buning natijasida aholiga ko'plab qulayliklar yaratildi. Endi

"Elektron poliklinika", "Elektron shifoxona" va "Elektron tibbiy karta" tizimlari ishga tushiriladi. Kafolatlangan paketga kirgan dorilarni elektron retsept asosida berish yo'lga qo'yiladi. Viloyat shifoxonalari ham elektron yo'llanma tizimiga ulanadi.

Davlatimiz rahbari har bir ona va bola o'limiga "favqulodda holat", deb qarash kerakligini ta'kidladi. Tug'uruqxonalarni zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, homilador va tug'uruq yoshidagi ayollar salomatligini mustahkamlash, doya va hamshiralarni qo'shimcha o'qitish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Madaniyat sohasida avval belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilindi. Har bir tumanda kino zali, kutubxonasi va to'garak xonalari bo'lgan madaniyat markazi barpo etish, hududlarda madaniy tadbirlar o'tkazish va yoshlarni san'atga jalb qilish masalalari ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, mahallalarni ommaviy sport turidan biriga ixtisoslashtirish, hududlar va respublika miqyosida musobaqalar tashkil etish bo'yicha vazifalar qo'yildi.

Shu yil Parijda bo'lib o'tadigan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik masalalari ham ko'rib chiqildi. Sportchilarning yo'llanmalarni qo'lga kiritishi va musobaqalarga yaxshi tayyorgarlik ko'rishi uchun barcha sharoit yaratilishi aytiladi. Ularni chuqurlashgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish, farmakologiya va diyetologiya jihatidan sifati ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axboroti eshitildi.

O'ZA.

Bugunning gapi

TARIX HECH QACHON ORTGA QAYTMAYDI

Tinchlik baxtli, erkin va farovon hayotning eng birlamchi sharti hisoblanadi. Shuning uchun doim hushyor va ogoh bo'lishimiz, yurtimiz, xonadonlarimiz osoyishtaligi, farzandlarimiz kelajagi uchun har qanday xurujlarga tayyor turishimiz kerak. Hozir dunyoning turli mintaqalarida keskinlik va qarama-qarshiliklar kuchaymoqda, radikalizm va ekstremizm xavfi tobora ortib boryapti. Bugun qanchadan-qancha begunoh odamlar urush harakatlari bois tug'ilib o'sgan joyini, qadrdon go'shasini tashlab boshqa yurtlarga ketishga majbur bo'lyapti. Tinch aholining hayoti barbod qiliyapti.



Xalqimiz tanlagan yo'l — hurriyat yo'li

Nazarimda, O'zbekistonda 130 ga yaqin millatlar vakillarining tincho-soyishta yashayotgani kimlardir tinch qo'ymayotganday. Shu ma'noda, og'ziga kuchi yetmagan kaltabin siyosatchilar tomonidan O'zbekistonga asossiz o'tilayotgan tuhmat toshlari bejiz emas. Turli mintaqalarda o'zaro kelishmovchiliklar, vayronkor urushlar davom etayotgan bir paytda ular axborot xurujlarini kuchaytirish orqali jamiyat barqarorligiga raxna solish niyatida turli manfur usullarni ishga solishayotir. Urush tufayli Ukrainada, G'azo sektorida begunoh bolalar, mushtipar ayollar, keksalar, tinch aholi kunda-kunora nobud bo'lmogda, ayni kunlarda xonavayron bo'lib, boshpanasiz, oziq-ovqatsiz qolmogda.

Yo'q, yovuz kuchlarni bu urushlar ham qoniqtirmayapti. Ular 150-yillik quillik

zanjiridan qutulib, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini qo'lga kiritgan davlatlarning, millatlarning unga bosh egib, har kuni sahardan sha'niga madhiya aytib, salom berishini istashyapti. Paxtasiga, pillasiga, tillasiga, gaz-neft konlariga ega bo'lishni, o'zlarini esa qaytadan qul qilib ishlatishni xayol qilyapti.

Yuksak texnologiyalar asri bo'lgan hozirgi davrda sog'lom fikrli odam bir kiran og'ar suv kechimiga qayta tushishning umuman iloji yo'qligini yaxshi biladi. Miyasida illat bo'lgan odamgina shunday xomxayol qilishi mumkin. Bir umr yurtining ozod bo'lishini orzu qilgan, shu yo'lda jonini tikkan, qirg'in, surgun qilingan ajdodlarimiz, kelajak avlodlarimiz oldidagi javobgarlik majburiyati haqqi-hurmati, biz o'z yo'limizni tanlaganmiz va har qanday sharoitda ham bu yo'ldan ortga chekinmaymiz.

Bunaqa siyosatchilarning da'volari hamkorlik munosabatlarini davom ettirayotgan ikki davlat o'rtasiga sovuqchilik tushirishi mumkinligini ular bilmaydilmir? Juda yaxshi bilishadi. Demak, mantiqan

olganda, ularning murvati qaysidir kuchlar tomonidan buralyapti. Ortg qaytmas islohotlar yo'ldan borayotgan yangi O'zbekistonga nisbatan bo'layotgan bunday axboriy va siyosiy tajovuzlarga nafaqat yurtim, Vatanim deb yongan, jonini tikishga tayyor turgan o'zbek farzandi, o'zbek ziyolilari, balki shu zaminda tinchlik-totuvlikda, bir-biri bilan do'st-birodar, hamjihatlikda yashayotgan har bir millat va elat vakillari chuqur mulohaza qilib, qizishmasdan asosli va munosib javob qaytarishi shart va zarur.

Millat himoyachilari millatchimi?

Bizning uch ming yillik tariximiz bor. Bir paytlar zaminimizda gullab-yashnagan Turon davlati chegarasi bu yog'i Sharqiy Turkistondan tortib Kichik Osiyo, Kaspiy dengizigacha bo'lgan, boshqa tomoni Tinch okeani Oxota dengizigacha cho'zilgan va Turk xoqonligi deb atalgan juda katta imperiya bo'lgan. Buni tarixchilar, olimlar

yaxshi bilishadi. Lekin o'sha joylar bizga qarashli, deb da'vo qilmayapmiz-ku!

Biz bag'rikeng xalqimiz. Kelgan odamni do'stmi, do'stmasmiz, quchoq ochib kutib olganmiz, uyimizning to'ri berganmiz. Tansiq taomlarni o'zimiz yemasak-da, ularga tutganmiz. Ikkinchi jahon urushi yillarida — qimmatli va qahatchilikda son-sanoqsiz vagonlarda kelgan yetimlarning boshini silab, panoh bo'lganmiz, hech birini begona deb bilmaganmiz. Xo'sh, bularning evaziga nimaga erishdik?

Ikkinchi jahon urushi hamda qatag'onlik siyosat oqibatida sobiq ittifoqning turli hududlaridan bir qator xalqlar "vatan xoinlari" tamg'asi ostida O'rta Osiyo va Qozog'istonga ko'chirildi. Asl maqsad xalqlarni bir-biridan ajratish va jazolashdan iborat edi. Sho'ro hukumatining bu xatti-harakatlari fashistlar okkupatsiyasi davrida ayrim kishilar va guruhlarning xoingli uchun berilgan jazo, mamlakat xavfsizligini qo'riqlash, deb ta'riflandi.

Senat qo'mitalarida

DAVLAT DASTURI LOYIHASI CHUQUR TAHLILDAN O'TKAZILDI

Kecha bo'lib o'tgan Oliy Majlis Senatining bir qator qo'mitalari yig'ilishlarida "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi chuqur tahlildan o'tkazildi. Ularida e'tirof etilganidek, joriy yilda ham nomi keltirib o'tilgan strategiyada belgilangan islohotlarni samarali amalga oshirish hamda xalq manfaatlariga yo'naltirilgan boshqaruvni yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator vazifalar belgilangan bo'lib, ularning barchasi davlat dasturi loyihasida o'z ifodasini topmogda.

Yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish maqsad qilinmogda

Oliy Majlis Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi yig'ilishida jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan loyiha "O'zbekiston — 2030"

Shuningdek, iqtisodiyotga 275 trln. so'm kredit resurslarini yo'naltirish, shu jumladan, 41 trln. so'mlik mikromoliya xizmatlari ko'rsatilishini ta'minlash va banklar tomonidan taqdim etiladigan kredit stavkalarini bozor mexanizmlari asosida 2-3 foiz bandga pasaytirish uchun zarur sharoit yaratish maqsad qilingan.

Xususan, davlat dasturi loyihasining "Barqaror iqtisodiy

Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

ASOSIY E'TIBOR INSON MANFAATLARIGA QARATILDI

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi.

Ularida quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan masalalar, xususan, aholining tinch va osoyishta hayotini mustahkamlash, kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik hamda hayvonot turlarini muhofaza qilish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni qonun ijodkorligi jarayoniga keng jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga oid masalalar ko'rib chiqildi.

Qonun loyihalari muhokamalarida asosiy e'tibor ularning dolzarbligi, zarurati va ahamiyati, shuningdek, inson manfaatlariga qay darajada mosligiga qaratildi.

ESHIKNI OCHIB-YOPISHDAN ELEKTR ENERGIYASI OLINMOQDA

“Qalovini topsa kesakdan ham olov chiqadi”. Garchi ushbu ibora mubolag'a bo'lsa-da, mohiyatida haqiqat bor. Bunga o'tmishdagi va hozirgi ko'plab ixtirolar, ilm-fan yutuqlari misol bo'la oladi. Ko'zimizga oddiy ko'ringan holatlar, hodisalar, narsalar katta kashfiyotlar kaliti bo'lishi mumkin.

Sirdaryolik yosh ixtirochi Nurbek Toshboyevning har birimiz uchun oddiy harakat bo'lib tuyuladigan eshikni ochib-yopish jarayonida elektr energiyasi hosil qilganligi ham hayratlanarli, albatta.

Binobarin, bu bo'yicha o'tgan yili Sirdaryo yoshlar texnoparkida “Door electrical energy” loyihasi asosida qurilma yaratildi hamda texnopark ko'magida ishlab chiqarildi. Ayni paytda ushbu mitti elektr korxonalari texnoparkning robototexnika va kompyuter xonalari yoritish tizimini tok bilan to'liq ta'minlayapti.

Ixtirochi tomonidan yaratildi. Generaturning aylanishini tezlashtiruvchi maxsus mexanizm 3D printerida loyihalaniy yasalgan. Ayni tezlashtiruvchi mexanizm (“shesternya”) tufayli eshikning bir marotaba ochilib-yopilishidan 20 — 30 vattgacha quvvat hosil qilinadi.

N. Toshboyev ayni paytda Guliston davlat universitetining fizika yo'nalishi bo'yicha 4-bosqichda davlat granti asosida tahsil olmoqda. Shu bilan birga, Sirdaryo yoshlar texnoparkining “Robototexnika. Elektronika” yo'nalishi bosh mutaxassisi, “InnoX” biznes



— Qurilmamizning elektr energiya ishlab chiqarish quvvati eshikning ochilib-yopilish jarayoniga bog'liq, — deydi Nurbek Toshboyev. — Shu bois uni jamoat yoki tashkilotdagi odamlar tez-tez kirib chiqadigan, xonadonlarda ham eng ko'p ochilib-yopiladigan eshiklarga o'rnatish yaxshi samara beradi. Masalan, kun davomida 40 — 50-martagacha ochilib-yopiladigan eshik harakatidan 0.8 — 1.1 kilovatt/soatgacha elektr energiya olish mumkin.

E'tiborlisi, hosil qilingan energiya maxsus akkumulyatorlarda to'planadi. Natijada kunning istalgan vaqtida elektronika jihozlari yoki yoritish tizimi ekologik sof energiya bilan ta'minlanadi. Aniqliq aytganda, bitta eshik orqali ishlab chiqarilgan energiya bilan ikkita 10 vattlik “Led” chirog'i 10 — 12 soatgacha yonib turadi.

Qurilmaga maxsus generator o'rnatilgan. Tok ishlab chiqarishning ushbu asosiy uskunasi ham yosh



inkubatsiya dasturi trekkeri sifatida faoliyat yuritmoqda. Yosh ixtirochi samarali startap loyihalari bilan ko'plab innovatsion loyiha tanlovlarda g'olib bo'lgan.

Aytish joizki, Sirdaryo yoshlar texnoparkida istiqbolli startap loyihalar ustida ishlayotgan yigit-qizlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular uchun bu yerda barcha sharoitga ega qishloq xo'jaligi, kybersport, “O-net academy”, “Castle academy” kabi bir qancha yo'nalishlar faoliyat yuritaypti.

Ahmadali
SHERNAZAROV
 (“Xalq so'zi”).

REKLAMA

“...Qayu panjakim, panjai oftob”

Daho shoir Alisher Navoiy nafaqat ijodiy merosi, balki hayoti, ezgu fazilatlar bilan ham biz, avlodlarga doimiy ibrat namunasidir. Xususan, uning ustozlariga munosabati, mehr-muhabbati, bu insonlarni behisob ardoqlashi, kamtarligi kishiga havas va iftixor baxsh etadi.

9-fevral — Alisher Navoiy tavallud topgan kun

Buyuk mutafakkirning bu xislatlari uning “Saddi Iskandariy” dostonining yakunlovchi 89-bobida ko'zga yaqqol tashlanadi. Ushbu bob nafaqat beshinchi doston, balki muhtasham “Xamsa”ning yakunlovchi qismidir. Hazrat Navoiy “Xamsa” dostonlarida o'zining nek niyati, muddaolari, oldiga qo'ygan oliy maqsadi, uni yozishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi, ilhomiy onlari, ma'lum muddat yoza olmay qolgan paytlaridagi tushkun kayfiyati, chekkan mashaqqatlari yoxud Allohdan madad va najot so'rab qilgan iltijolari yoki so'z, qalam, qog'oz, dovotiga murojaatlari, tavba hamda tazarrulari haqida juda ta'sirli, ibratomuz baytlay yozgan.

Shu bilan birga, har bir dostoni avvalida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi xamsanavis ustozlarini sharaflab alohida boblar bitgan. Ularda xamsachilik maktabi va asoschisi, an'ana hamda novatorlik masalalari, ijod jarayoni, uslub jilolari, tarixiy va adabiy dalillar xususida gapirgan.

“Saddi Iskandariy”ning 89-bobida baxtu iqboli qo'llab, yuksak orzulari ro'yobga chiqib, “Xamsa”ni tugatgani xususida va besh doston nomi, mazmuni haqida to'liqlanib yozarkan, ustozlariga samimiy dil izhortlarini bildiradi, ularni sharaflaydi va alqaydi. Bunday go'zal munosabat dostonning ko'plab o'rinlarida kelgan, ammo biz maqola hajmini hisobga olib, ba'zilarini tahlil va talqin etishga harakat qildik.

Birinchidan, Alisher Navoiy bobning dastlabki tasvirida xamsachilik maktabi haqida so'z ochadi va panja, qo'l, ilik so'zlarini obrazli ifoda tarzda qo'llaydi. Iftixor tuyg'usi bilan Nizomiyning ilk

xamsanavis sifatida tanishtiradi va uning “Panj ganj”ini obrazli ifoda shaklida “panjai oftob” deya sharaflaydi:

Ne panja erur, “Xamsa”i ganjsanj
Ki, dono qo'yubtur otin “Panj ganj”.
Qayu “Xamsa”kim, maxzani durri nob,
Qayu panjakim, panjai oftob.

Ikkinchidan, “Saddi Iskandariy”ni yozishga qo'l urgan hazrat Navoiy gohida buyuk zamondoshi Jomiyning “Biyik himmatidin madadkorlik” istab va duo so'rab uning huzuriga tez-tez borib turganini aytgan. Tasvirda u qulf va kalitni mahorat ila obrazli ifoda bilan qo'llab, Jomiy kabi buyuklar duosi qulfini ochuvchi kalit ekanini to'liqlanib yozadi:

Ki, har quflkim fathidur nopadid,
Anga bor eranlar duosi kalid.

Jomiy do'sti Alisher Navoiyga keng fikr, yuksak ijodiy ong va tafakkur sohibi ekanini gapirib, “Ki, so'z tavri keldi sening sha'ninga”, “So'z ichra senga pahlavonliq dog'i”, “Umid ulki, bo'lg'ay muyassar senga”, deya katta umid beradi.

Uchinchidan, Alisher Navoiy yakunlangan “Xamsa” qoralamasini g'ilofga solib, ya'ni “Savodin solib juzvdonim aro”, deya Jomiy huzuriga ravona bo'ladi. Unga “Xamsa” xotimasi xususidagi xushxabarni aytadi va ko'ngli to'lib ustozini “...madadkor aning himmati”, “Ne ish tushsa, g'avrum'a yetguchi ul”, deya olqishlaydi.

To'rtinchidan, hazrat Navoiy o'zini rostlab olgach, “Uzun umrlar anda sarf ettilar”,



Sirojiddin VOHIDOV olgan surat.

degan yuksak e'tirof bilan Nizomiy Ganjaviyning “Nizomiyki, nazm ahli ustodidir”, Xusrav Dehlaviyning esa “Ki, so'z birla oldi Ajam to Arab”, deb ulug'laydi. Sharq mumtoz adabiyotining Sa'diy Sheroziy, Abulqosim Firdavsiy, Ahmad Unsuriy, Sanoiy, Hoqoniy, Anvariyy kabi buyuk so'z ustalarini, hatto unga ruboiy yozib “So'z mulkining Sohibqironi, qahramoni” deya sharaflagan munaqqidi Sulton Husayn Boyqaroni talme shan'ati vositasida yodga oladi. Ularga hurmati va boy ijodiy merosiga qiziqishi balandligini eslab o'tadi.

Beshinchidan, “Xamsa”ni basmala bilan boshlagan Alisher Navoiy asar xotimasida faxriya usulida o'ziga murojaat qilib, Tangrining karami,

marhamati, inoyati bilan oliy maqsadi ravo bo'lganiga olam-olam shukronalar izhor qiladi:

Navoiy, qilib Tengri koming ravo,
Senga ro'zi etti ajoyib navo.

Uzoq Tengri shukri navosig'a til,
Navo ortuq istar esang, shukr qil!


Muxtasar aytganda, “Saddi Iskandariy”ning birgina mazkur bobi tasviri, talqini buyuk mutafakkir shoirning qalb va ijod olamini namoyon etadi.

Burobiya RAJABOVA,
O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya
fanlari nomzodi.

Mahallaning uddaburon oilalari

Farg'ona viloyatining Quvasoy shahridagi “Do'stlik” mahalla fuqarolar yig'inida 3 ming 160 dan ziyod aholi istiqomat qiladi. Mahallada aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlar tufayli quvonarli yutuqlarga erishilyapti.

Omilkorlik



— Bugungi kunda mahallamizda 54 nafar tadbirkor samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Birgina mebelchilikka ixtisoslashtirilgan kichik korxonada 20 dan ortiq ish o'rnlari yaratilgan, — deydi “Do'stlik” MFY raisi G'iyosjon Isayev. — Shuningdek, bog'dorchilik, chorvachilik, parrandachilik mahallaning drayveri sifatida belgilangan. Shu tariqa mahallaning uddaburon oilalari hamma ishni do'ndirib kelishmoqda.

Yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan mavjuda Junaydullayeva o'tgan yili bahorda uchta quyon sotib olib, mehr bilan parvarishlashga kirishgan

edi. O'tgan qisqa fursatda quyonlar bosh soni 60 taga yetdi. Fayzli oila bekasining qayd etishicha, quyonchilik kam mablag' sarflab, yaxshi daromad olsa bo'ladigan tadbirkorlik hisoblanadi. Daromadi ham yaxshi, ro'zg'orga baraka olib keladi.



Muxtasar aytganda, mahallada tadbirkorlik, dehqonchilik kabi yumushlar ortidan farovon hayot kechirayotgan oilalar soni yildan-yilga ko'payib bormoqda.

Botir MADIYOROV
 (“Xalq so'zi”).

Hunarmandchilik BOYSUNLIKLAR REKORDNI YANGILASHMOQCHI

Boysun tumani azaldan qo'lig'ul, mohir hunarmandlari bilan dong taratgan. Vohaga xos milliy kashtachilik san'ati o'lmas milliy qadriyat sifatida e'zozlanib, yosh avlod tomonidan davom ettirilmoqda. Bugungi kunda o'tmish va kelajak nafasini o'zida jo qilgan boysunlik kashtado'zlarning mahsulotlari viloyat va respublika miqyosidagi tadbirlarda namoyish etilib, e'tirofga sazovor bo'lmoqda.

Kashtachilikka asoslangan “Dream's shahrinav” oilaviy korxonasi ham o'z uslub va maktabiga ega korxonalardan biri hisoblanadi. Ko'p yillardan beri milliy hunarmandchilgimiz an'analarini davom ettirib kelayotgan ushbu korxonada hozirgi paytda yuzga yaqin milliy hunarmandchilik buyumlari yasalmoqda.

Korxonamizda kasanachilarimiz bilan qo'shib hisoblaganda 34 nafar xodim faoliyat yuritadi, — deydi ish yurituvchi Nilufar Jo'rayeva. — Bu yerda, asosan, erkak hamda ayollarga mos milliy

va zamonaviy liboslar, turli sumkalar tikiladi, sovg'abop suvenirlar yasalanadi. Bundan tashqari, Samarqanddagi “Boqiy shahar”da “Boysun kashtado'zlari” degan ustaxonamiz bor. U yerda ham 4 nafar kashtado'z ishlaydi.

“Dream's shahrinav” oilaviy korxonasi vakillari “Boysun bahori” folklor festivali uchun umumiy hajmi 161 kvadrat metrdan iborat, ya'ni bo'yi 31, eni 5,20 metrli milliy so'zana namunasini tayyorlashmoqda. Tikuv ishlariga 100 nafar mohir kashtado'z jalb etilgan. — Ushbu so'zana 25

qismdan iborat bo'lib, kasanachilarimiz bilan hamkorlikda tikiladi, — deydi “Dream's shahrinav” oilaviy korxonasi ta'sischi, “Faol tadbirkor” ko'krak nishoni sohibasi Malika Podshoyeva. — Ayni paytda dizayn ishlari yakunlanib, eskizlar olindi. Endi so'zanamizga jilo berish ishlarini boshlaymiz.

Ta'kidlash joizki, bundan avval boysunlik hunarmandlar tomonidan tikilgan, uzunligi 25, eni 6 metr, og'irligi 60 kilogrammi tashkil etgan dunyodagi eng katta so'zana 2019-yil aprel oyida Termiz shahrida o'tkazilgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivalida ilk bor namoyish qilingan edi.

Xolmuhammad
TOG'AYMURODOV.
Suxondaryo viloyati

“Chimgan — Chorbog' magistrat suv ta'minot” AJ mijozlari diqqatiga:

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi tomonidan 2024-yilning 2-fevraldagi VI-86-6-10-0-K/24-son qaroriga asosan 2024-yil 20-fevraldan boshlab ichimlik suvi hamda kanalizatsiya xizmatlari uchun narxlar quyidagicha belgilanganligi ma'lum qilinadi.

T/r	Tovar (ish, xizmat)ning nomi	Miqdori	Narxlar QQSsiz	Narxlar QQS bilan
	Ichimlik suvi yetkazib berish			
1	Aholiga	1m ³	1100	0
2	Budjet tashkilotlariga	1m ³	1300	1456
3	Ulgurji iste'molchilarga	1m ³	4600	5152
	Oqova suvlari chiqarish			
1	Aholiga	1m ³	300	
2	Budjet tashkilotlariga	1m ³	400	448
3	Ulgurji iste'molchilarga	1m ³	3100	3472

Eslatma: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-oktabrdagi “Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ 343-sonli qarorining tegishli bandlariga asosan barcha guruh iste'molchilariga ustama haqlar hisoblanishi 2024-yil 1-yanvardan to'xtatilgan.

Ma'lumot uchun: hisoblash uskunolari bo'lmagan iste'molchilarga sovuq suv xizmati uchun to'lovlar belgilangan tariflarga oshib boruvchi 1,5 koeffitsiyentni tatbiq etish bilan amalga oshiriladi.

“TOSHKENT VILOYATI SUV TA'MINOTI” AKSIYADORLIK JAMIYATI

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 2-fevraldagi VI-86-6-10-0-K/24-son qaroriga asosan, 2024-yil 20-fevraldan boshlab iste'molchilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari narxlarini o'zgarishini ma'lum qiladi.

Aholiga ichimlik suvi	1 m ³ — 2000 so'm
Budjet tashkilotlariga ichimlik suvi	1 m ³ — 9000 so'm
Boshqa tashkilotlarga ichimlik suvi	1 m ³ — 9000 so'm

Aholiga oqova suv xizmati	1 m ³ — 1000 so'm
Budjet tashkilotlariga oqova suv xizmati	1 m ³ — 2000 so'm
Boshqa tashkilotlarga oqova suv xizmati	1 m ³ — 2000 so'm

Eslatma: hisoblash uskunolari bo'lmagan holatlarda sovuq suv xizmati bo'yicha to'lovlar belgilangan tariflarga oshib boruvchi 1,5 koeffitsiyentni tatbiq etish bilan amalga oshiriladi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualfiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.40 Topshirildi — 01.40 1 2 3 4 5 6